



O‘zbek tilshunosligidagi morfemikaga doir ilk tadqiqotlar talqini

Xusanova Muxlisa Yo‘ldosh qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti 2-kurs magistranti

E-mail: xusanovamuxlisa6@gmail.com

Annotatsiya. Morfemika tilshunoslikning, grammatikaning ajralmas qismlaridan biri hisoblanadi va u tildagi eng kichik qismlar morfemalarni o‘rganadi. Morfemikaning rivojlanishi tarixda va hozirgi kunda qanday bosqichlardan o‘tganligi haqida ko‘plab tilshunoslar olimlar tomonidan ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Mazkur maqolada morfemikaning o‘zbek tilshunosligida shakllanishi borasida fikrlar bayon etiladi va tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: morfema, diaxron, sinxron, sarf, nahv, formal-funksional, affiksial sinonimiya.

Ma’lumki, har qanday til hodisasini tarixiy jihatdan o‘rganishning yagona yo‘li bu birlamchi manbalarga va yozma yodgorliklarga tayanish va qiyoslashdir. Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston diyorida ham morfemikaga oid ishlar XX asrdan boshlab yaratila boshlandi. Ta’kidlash lozimki, turkiyshunoslikda morfemikaga oid ilk qarashlar Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida o‘z aksini topgan. Aynan morfemika atamasi qo‘llanilmasa-da, asos va qo‘shimchalar haqida fikrlar keltirilgan. Devonda bir qancha qo‘shimchalar haqida fikr yuritilar ekan, ularning qanday grammatik ma’no anglatishi va variantlari haqida ham misollarni uchratish mumkin. Turli tillarda va turli shevalarda bu affikslarning turlari so‘zlarga qanday qo‘shilishi va boshqalar haqida ma’lumotlarni topish mumkin. Qoshg‘ariy turli joylarni ko‘rar ekan, o‘sha hududlarning so‘zlarini va morfemik shakllarni ham o‘z asarida izohlab yozib qo‘ygan. “Bo‘lishsiz fe’llar haqida yuqorida ko‘rsatganimizcha, o‘zak oxiriga -ma qo‘shilib yasaladi: saqinma-o‘ylama, fikr qilma, savinma-suyunma kabi” [Mahmud Koshg‘ariy 1963. 193] fe’llardagi shaxs-son shakllari haqida ham fikrlar uchraydi: “So‘zlovchi birligida -m bilan tapindim, tinglovchi birligida -ng bilan tapinding, o‘zga birligida -i bilan tapindi shakli qo‘llaniladi”. Qoshg‘ariyning “Devon”ida asos va qo‘shimchalarga oid ko‘plab shunday ma’lumotlarni topish mumkin. Bundan tashqari, Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid fikrlari bayon etilgan “Muhokamat ul lug‘atayn” asarida ham morfemik birliklar haqida bir nechta fikrlar keltirib o‘tilgan. So‘z yasovchi qo‘shimchalar, ularning so‘zlarga qo‘shilishi borasida ma’lumotlar bor. “Hunar va peshada andoqki, qushchi va borschi va



Learning and Sustainable Innovation

qo‘ruqchi va tamg‘achi va jibachi va yo‘rg‘achi va halvochi va kemachi va qo‘ychi” deb *-chi* qo‘shimchasi orqali shu kasb bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni bildiruvchi so‘zlarni yashashga yordam berishiga ishora qilgan. Birgalik nisbati haqida quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan: “Va masdarg‘a bir “Shin” harfi ilxoq “ilmoq” bila ul maqsudni topibdur. Andoqki, chopishmoq, topishmoq va quvishmoq va bu shoyi lafzdur”. [A.Navoiy. 1967.10]

XX asrning 30-yillarida o‘zbek tilshunosligida yangi bosqich yuzaga keldi. Bu bosqichda Fitratning “Sarf” va “Nahv” asarlarini alohida aytib o‘tish mumkin. Fitrat o‘z asarida “So‘zlarning tublig‘i, yasamalig‘i” [Fitrat. 2006. 146] degan bobni yozadi. “Bir ma‘noni onglatuvchi birgina “tub” so‘zni olib, unga turli qo‘shimchalar qo‘shmoq bilan u ma‘no tegrasidagi o‘n-o‘n besh ma‘noni onglata olmoq “so‘z yasash” yo‘li bilan bo‘ladir... Yozmoq so‘zining o‘zagi yozdir. Shu o‘zakka turli qo‘shimchalar qo‘shib yozish, yozma, yozdim, yozajak, yozg‘uchi, yozmoqchi, yozgan, yozg‘ich kabi so‘zlar yasamoq “so‘z yasash” (ya‘ni, ishtiyoq)dir. Bunda yoz so‘zig‘a “tub so‘z” boshqalarig‘a “yasama so‘z” deymiz”. [Fitrat. 2006. 146] Fitratning ushbu fikrlaridan shu mulohaza yuzaga keladiki, u davrda so‘z yasovchi qo‘shimchalar aynan belgilab olinmagan va asosning ma‘nosiga yangi ma‘no yoki qo‘shimcha ma‘no yuklagan birliklar so‘z yasovchi qo‘shimchalar sifatida talqin etilgan. Fitratning asarida qo‘shimchalarning bir qancha turlarga bo‘linganligini ko‘rish mumkin. Masalan, “kichiklangan otlar” -chiq, -choq, -chak, -loq shakllari bilan hosil qilinishi; sifatning daraja shaklini yuzaga chiqarishda -im, -imtil, -ish shakllari qo‘shilishi; buyruq shaklini vujudga keltirishda -sak, -ay, -ayingiz, -sin, -sinlar shakllaridan foydalanilishini uchratish mumkin. Ko‘rinib turibdiki Fitrat morfemika yoki morfema terminlarini qo‘llanmagan, ammo so‘z tarkibi, so‘z yasalishi va qo‘shimchalar haqida keng ma‘lumotlar qoldirgan. “Sarf” kitobida hozirda mavjud qo‘shimchalarning o‘sha davr tilida ishlatilgan shakllari berib o‘tilgan, ya‘ni -gan shaklining -g‘an shaklida ishlatilgani, -lik shaklining -liq shaklida kelishi, -moq ning -mak shakli, bo‘lishsizlik -maslik ning -masliq shaklida qollanganligi haqida ham fikrlar yuritilgan. Bundan tashqari, asarda yana juda ko‘plab qimmatli ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

Tilshunoslikda morfema termini qo‘llanmasdan avval ham bu bo‘lim haqidagi ma‘lumotlar bilan tanishish imkoni mavjud. “Morfema” termini va tushunchasi tilshunoslikka, dastlab, Boduen de Kurtene tomonidan kiritilgan. Olim morfema deganda, morfologiyaning eng sodda birligi tushunilishini aytib o‘tgan. “Morfemalar bu so‘zning ayrim ma‘noli qismlaridir. So‘zning u yo bu ma‘noli qismi morfema deyiladi”,-deb ta‘riflagan. [B.de Kurtene. 1903. 12] Tilshunosning yuqoridagi



mulohazalari orqali morfema haqidagi qarashlarning yuzaga chiqishiga, tilda muhim birlik sifatida maydonga kelishiga sababchi bo'lgan.

Yormat Tojiyev ham morfemika bo'limiga formal-funksional jihatdan yondashib, asos va qo'shimchalarning shakli va bajaradigan vazifalariga alohida e'tibor qaratgan va yozgan asarlarida shu jihatlarni yoritib bergan. Uning "O'zbek tili morfemikasi" kitobi, "O'zbek tilida affiksial sinonimiya" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi mavjud. Olimning nomzodlik dissertatsiyasi ham aynan morfemika bilan bog'liq. Dissertatsiya mavzusi "O'zbek tilida ega ekanlik, ega emaslik ma'nolarini ifodalovchi affikslar sinonimiyasi" deb nomlangan. Tilshunos yetakchi morfema va ko'makchi morfema haqida fikrlarini bayon qilgan ulardagi o'ziga xos bo'lgan jihatlarni sanab o'tadi. "So'z morfemalarga ajralish xususiyatiga ega, u semantik-grammatik jihatdan shakllangan, bir butun holda xuddi shunday til birliklari bilan umumiylik hosil qiladigan va shu xususiyatiga ko'ra alohida-alohida leksik to'dalar hosil qiladigan til birligi hisoblanadi... O'zbek tilida ko'p morfemalilik xarakterli bo'lib, so'zda morfemalar soni qancha ko'p bo'lsa, ularning leksik ma'nolari ham murakkablashib boradi". Yormat Tojiyevning morfemika borasidagi ishlarida yangicha qarashlar va mulohazalarga duch kelinadi. Uning affiksial sinonimiyaga jiddiy e'tibor qaratishi ham bunga misol bo'la oladi. Qo'shimchalar orasidagi ma'nodoshlik bir necha qo'shimchani aynan ma'noda qo'llanilishidir va olim bu borada o'z mulohazalarini yuritgan. Asosan affiksial sinonimiyani fe'llarning tarkibida qo'llanuvchi qo'shimchalar orqali ochib bergan. "O'zbek tilida -t affiksi fe'l o'zaklariga qo'shib kelganda, boshqa orttirma daraja yasovchi affikslar bilan ham sinonim bo'la oladi: kirit // kirgiz // kirgaz, qizit // qizdir, to'lat // to'ldir". Olimning morfemalar orasidagi sinonimiyadan tashqari ko'p ma'nolilik haqida ham o'z qarashlari mavjud. Affikslar orasidagi polisemiya bir qo'shimchani turli so'zlarda o'xshash ma'nolarda qo'llanilishi, ya'ni ma'no juda uzoqlashib ketmasligidir. O'zbek tilida -li affiksi ega ekanlik yoki ortiq darajada ega ekanlik ma'nolarini ifodalovchi ekan, bu holatlarda ham u ko'p ma'noli sifatida yana har xil ma'nolarni bildiradi: gulli ko'ylak, gulli ko'cha, gulli tuvakcha kabi birikmalardagi gulli so'zi tarkibidagi -li qo'shimchasining ma'nolari bir-biridan farq qiladi.

Bundan tashqari qo'shimchalar orasidagi omonimiya va antonimiya hodisalari haqida ham o'z fikrlarini bayon etgan. Yormat Tojiyev tilshunoslikning morfemika bo'limiga tamal toshini qo'ygan olim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн (Нашрга тайёрловчи: П. Шамсиев). – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967.



2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar 4 jild .– Toshkent:Ma’naviyat, 2006.
3. Бодуэн де Куртене. Лингвистические заметки и афоризми... (журнал. Минстерства народного просвещения, 1903,
4. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. II том / Таржимон ва нашрга тайёрловчи: С. М. Муталлибов. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1963.
5. Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси: Олий ўқув юртлари филология факультетлари учун ўзбек тилидан қўлланма. – Тошкент, 1992.
6. Тожиев Ё. Ўзбек тилида аффиксал синонимия. – Тошкент: Университет, 1991.